



UDK:159.923

Nozimaxon XASANOVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: a.nozimaxon@gmail.com

O'zMU professori D.Muxammedova taqrizi asosida

### KOMPLAYENTLIK SHAXSNING DAVOLANISHGA MUNOSABATINING KOMPONENTI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada turli kasalliklarda davolanishga bo'lgan kompayentlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. Tadqiqotning uslubiy asosi sifatida Dj.Endjelning biopsixosotsial paradigmasi va V.N.Myasishevning munosabatlar nazariyasidan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** Kompayentlik, shaxs, kasallik, qandli diabet, shaxsning kasallikka munosabati, shaxsning davolanishga munosabati, emotsiya, xulq.

### КОМПЛАЕНС КАК КОМПОНЕНТ ОТНОШЕНИЯ ЛИЧНОСТИ К ЛЕЧЕНИЮ

Аннотация

В данной статье приведены результаты исследований, проведенных в рамках комплексного подхода к лечению различных заболеваний. В качестве методологической основы исследования выступили биопсихосоциальная парадигма Дж.Энджела и теория отношений В.Н.Мясищева.

**Ключевые слова:** Комплаенс, личность, болезнь, сахарные диабет, отношение личности к болезни, отношение личности к лечению, эмоции, поведение.

### COMPLIANCE AS A COMPONENT OF A PERSON'S ATTITUDE TO TREATMENT

Annotation

This article presents the results of studies conducted within the framework of an integrated approach to the treatment of various diseases. The research is conducted in the frames of biopsychosocial approach towards health and disease (G.Engel), V.N.Myasishev's theory of attitudes.

**Key words:** Compliance, personality, disease, diabetes mellitus, personality's attitude to disease, personality's attitude to treatment, emotions, behavior.

**Kirish.** Davolanish jarayonida bemorlarning kompayentligi salomatlikni tiklanishida, paydo bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa kasalliklarni oldini olishda muxim omil hisoblanadi. Kompayentlik ingliz tilida compliance termini tarjimai hisoblanib, ushbu mavzuda dunyoda bir qancha tadqiqotlar o'tkazilgan. Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2003 yildagi ma'ruzasi, uzoq muddatli davolanish jarayonida kompayentlikning tadqiqotlar sharhiga bag'ishlangan. Ma'ruza astma, onkologik kasalliklar, depressiya, diabet, epilepsiya, OIV infeksiyasi, gperenziya, tamaki chekishdan voz kechish va sil kabi kasalliklarda davolanishga sodiqlikning xususiyatlarini ko'rib chiqqan [1]. Bizning ushbu maqolamizda surunkali kassalik hisoblangan qandli diabet bilan kasallangan bemorlar bilan o'tkazilgan tadqiqod natijalari bilan tanishib chiqamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turli kasalliklarda davolanishga sodiqlikni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarning tahlili, uni o'rganishning bir nechta yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi:

ruhiy salomatlik buzilganda sodiqlikni tadqiq qilish;  
infeksiya paytida sodiqlikni tadqiq etish;  
surunkali kasalliklarda sodiqlikni tadqiq qilish.

Ruhiy salomatlikni buzilishlarini o'rganish bo'yicha misol qilib T.N.Kabanova, V.G.Buliginaning tadqiqotlarini keltirish mumkin (2012). Mazkur ishlar ruhiy bemorlarning subyektiv baholashning rolini aniqlashga, ularda davolanishga sodiqlikni shakllantirish va jamiyatga xavf soladigan harakatlarni profilatika qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda 68

ta organik ruhiy buzilishlar va shizofreniya tashxisi qo'yilgan erkak patsiyentlar ishtirok etgan. Ma'lumoti o'rtadan past va professional malakasi ham past bo'lgan bemorlarning ko'proq ehtirosli o'yinlarga moyilligi va ijobiy qarorlar qabul qilishda muammolarga duch kelishi aniqlangan [5].

Sodiqlikni infeksiyon kasalliklarda tadqiq qilish ko'pincha OIV –infeksiyasi va sil kasalliklari bilan xastalangan bemorlar ishtirokida olib boriladi. YE.V.Lyubayeva, S.N.Yenikolopov (2011) olib borgan tadqiqotlarida OIV-infeksiyasi va sil kasalliklari bilan og'rigan bemorlar tavsifini va ularda davolanishga sodiqlikni shakllantirishning individual psixologik rolini o'rganishgan. OIV va sil bilan og'rigan bemorlarning ekstravertlarida, vijdonlilik va ochiq tajriba, terapiyaga sodiqlikning qaramlik darajasi aniqlandi. Mualliflar ushbu ko'rsatkichlar ahamiyatining pastligi shundan dalolat beradiki, bu kabi bemorlarni psixologik kuzatuvda olib borish maqsadga muvofiq, deb xisoblaydi[2].

Shunday qilib, infeksiyon kasalliklarda davolanishga bo'lgan sodiqlikda intrapersonal va interpersonal omillar ham muhim rol o'ynaydi.

Yurak qon-tomir, stomatologik kasalliklarda, osteoporoz, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi, qandli diabet kabi surunkali kasalliklarda davolanishga sodiqlikni tadqiq qilish terapevtik tavsiyalarga rioya qilish yoki qilmaslik omillarini o'rganish bilan aloqador bo'ladi. Quyida qandli diabetda tibbiyot hodimlarining tavsiyalariga rioya qilishning xususiyatlarini o'rganish bag'ishlangan tadqiqotni ko'rib chiqamiz.

Qandli diabetda davolanishga sodiqlikni o'rganishga yo'naltirilgan izlanishlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning bir qismi ko'rsatmalarga amal qilish omillarini aniqlashga, bir qismi davolanishda komplayentlikning shakllanishi usullariga bag'ishlangan.

YE.S. Yemelyanov, A.L. Xoxlov, M.V. Pobedinseva (2013) qandli diabetni 2-turida kasallikni davomiyligiga qarab motivatsiyasini aniklashgan. Tadqiqotda statsionar va poliklinikada davolanyotgan bemorlar qatnashdilar. Qandli diabetni davolashda nafaqat bemorlarda balki bemorning qarindoshlarida bemor holatini rivojlanishi, xayot davomiyligiga sezilarli va xavf soluvchi o'zgarishlar paydo bo'lganda maksimal qiziqish aniqlangan. Qandli diabeti bir yildan to o'n yilgacha bo'lgan bemorlar davolanishga kam motivatsiyalangan. Insulin terapiyaga kasallikni davomiyligi emas, balki subyektiv faktorlar tasir ko'rsatadi[4].

O.V.Mayorova, T.S.Xrusheva (2018) qandli diabetni 1-turini davolashda sodiqlikni kechki asoratlarini chastotasidan kelib chikib aniqlashgan. Olimlar kandli diabetning 1-turidagi bemorlarni kasallikdagi katta stajida sodiqlikni yuqori darajasida aniqlashgan.

Shuning bilan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tadqiqotlar yordamida psixik salomatlik buzilgan, infeksiyon va surunkali kasalliklarda sodiqlikni xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki qandli diabetli bemorlarda dori vositalarni qabul qilish, jismoniy faollikka va parhezga rioya qilishga nisbatan sodiqlik past. Bundan tashqari tadqiqotlarda sodiqlik bilan motivatsion-qiymat faktorlarining o'zaro bog'liqligi yaxshi o'rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shaxsning davolanishga bo'lgan komplayentligini ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o'rganishda uni har tomonlama va ko'p qirrali tahlil qilishga amal qilinadi.

Birinchiidan, tadqiqot o'tkazish jarayonida surunkali kasalliklar (qandli diabet 1-, 2- tur va revmotologik kasalliklar) bilan og'rikan bemorlarda davolanishga bo'lgan munosabatning kognitiv, emotsional va komplayentlikning xulq komponentlarini o'z ichiga olgan xususiyatlari aniqlandi[10]. Ikkinchiidan, tadqiqotda surunkali kasalliklar bilan og'rikan bemorlarda komplayentlikning ijtimoiy kognitiv xususiyatlari aniqlandi. Uchinchidan, bemorlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari komplayentlik omili sifatida o'rganildi [10].

Dj.Endjelning tizimli biopsixosotsial yondashuvi bilan V.N.Myasishevning munosabat nazariyasi va komplayentlikning kommunikativ, kognitiv va o'z-o'zini boshqarish modellari empirik tadqiqotning metodologik asoslari sifatida tanlangan.

Dj. Endjelning tizimli biopsixosotsial yondashuviga asoslanib, aytish mumkinki, odamning salomatligi va bemorligiga biologik, psixologik va sotsiologik omillar katta ta'sir o'tkazadi. Kasalliklar nafaqat biologik omillar ta'sirida paydo bo'ladi, balki inson faoliyati tizimi natijasida, biologik elementlardan tashqari psixosotsial tizim xam bunga daxldor Jadval.

«Davolanishga munosabat» bloki savollariga javoblarnig taqsimlanishi %

№	Tasdiqlar	%			
		QD 1-tur N=151		QD 2-tur N=149	
		yuq	ha	yo'q	ha
1	Har xil davolanishlardan qochaman agar u haqda kamroq o'ylasam ishonamanki organizmimni o'zi kasallikni engadi	17,0	83,0	30,0	70,0
2	Kelgusidagi davolanish bilan bog'liq qiyinchiliklar va havf-xatarlar meni qo'rqitadi	81,0	19,0	85,0	15,0
3	Men kasallikdan qutilish uchun eng qiyinoqli va xatarli davolanishga tayyor bo'lar edim	78,0	22,0	85,0	15,0
4	Men davolanishda omadga ishonmayman va uni behuda deb hisoblayman	22,0	78,0	13,0	87,0

bo'ladi (shaxsiy, diadik, oilaviy va sotsial munosabat). Dj. Endjel shuni ta'kidlaydi: salomatlik va kasallik ko'plab bir-biriga ta'sir etuvchi omillar tufayli aniqlanadi [7]. Boshqa so'z bilan aytganda Dj.Endjelning qarashlariga asoslanib, salomatlik va kasallikning tibbiy konsepsiyasi ko'pincha shaxsning diqqat e'tibori, qayg'urishi va motivatsiyasini chetda qoldiradi[3].

V.N. Myasishevning munosabat nazariyasiga asoslanib, munosabatning psixologik ma'nosi shundan iboratki, atrofidagi borliqning odam xulq atvorida aks etishining bir shakli hisoblanadi[11].

V.N.Myasishevning munosabatlar nazariyasi salomatlikka munosabatning ko'pkomponentli tahlil etishga asoslanganligini inobatga olib, bizning tadqiqotlar doirasida davolanishga bo'lgan munosabatni uchta komponentga bo'lish mumkin [12, 13]:

- kognitiv komponent – odamning qandli diabet va uning davosi haqidagi bilimini xarakterlaydi;

- emotsional komponent – odamning davolanish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan emotsiyasi, sezgisi va qayg'urishini ifodalaydi;

- xulq-atvor komponenti shifokor tavsiyalariga rioya qilishning xulqiy xususiyatlarini xarakterlaydi [13].

Shunday qilib, davolanishga munosabat deganda biz davolanishga komplayentlikning kognitiv, emotsional va xulq-atvoriy komponentlarining o'zaro ta'sirini, aynan harakatlar jismoniy faollikka, ratsional ovqatlanish va ushbu jarayonda kechuvchi motivlarni tushunamiz. Davolanishga komplayentlikning kognitiv modelida ijtimoiy-kognitiv omillar doirasida salomatlik bilan bog'liq bo'lgan ishonch modeli, ijtimoiy-kognitiv nazariya va rejalashtirilgan xulq nazariyasi ahamiyatga ega [13]

**Tahlil va natijalar.** Bizning “Shaxsda davolanishga munosabatning ijtimoiy psixologik xususiyatlari” mavzusida o'tkazilgan tadqiqot natijalarimizga ko'ra davolanishga munosabatning xususiyatlarini ko'rib chikamiz.

«Shaxsning kasallikga munosabat turi» (L.I.Vasserman va b.) metodikasi so'rovnomada shaklida tuzilgan bo'lib, bemorning hayot muammolari va vaziyatlarga u uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarga bevosita yoki bilvosita munosabati haqidagi axborotlar asosida kasallikka munosabat turini tashxislaydi. Bemorning bu munosabat turi shaxs munosabatlari umumiy tizimidagi 12 ta tizimosti sifatida o'rganilgan. Aynan ushbu tizimosti munosabat metodikaning asosiy tuzilmasini mazmuni 12 ta mavzu: kasallikka, davolanishga, shifokor va tibbiyot hodimlariga, qarindoshlar va yaqinlariga, atrofdagilar, ishdagi hamkasblarga (o'qishdagilar), yolg'izlikka, kelajakga va shu bilan birga o'zini baholashi, o'zini his etishi, kayfiyati, uyqusi va ishtaxasiga munosabatidir.

Ushbu so'rovnomada shakli tizimli yondashuvni yanada ochib va kasallikka munosabatni muxim tavsiflarini aniqlab beradi. Tadqiqotda qandli diabet 1 va 2 tur bilan kasallangan bemorlarning “Davolanishga munosabat” bloki savollariga javoblarini taxlil qilamiz.

5	Men davolanishning yangi usullarini izlayman, afsuslar bo'lsinki, har gal, doimo hafsalam pir bo'ladi	98,0	2,0	95,0	5,0
6	Men, menga kerakmas bo'lgan dori va davolash amaliyotlarini buyurishadi, behuda bo'lgan jarroxlik amaliyotiga undashadi deb xisoblayman	81,0	19,0	85,0	15,0
7	Barcha yangi dorilar, davolash va jarroxlik amaliyotlari, menda ular bilan bog'lik asoratlar va havflar qaqida cheksiz fikrlar paydo qiladi	81,0	19,0	83,0	17,0
8	Dorilar va davolash amaliyoti menga juda tez noodatiy ta'sir ko'rsatadi, va bu shifokorlarni hayratlanadi	83,0	17,0	73,0	27,0
9	Qo'llanilayotgan davolash usullari ichida zararlilari ham borki ularni ta'qiqlash lozim deb hisoblayman	98,0	2,0	94,0	6,0
10	Meni noto'g'ri davolashayapti deb hisoblayman	98,0	2,0	95,0	5,0
11	Men hech qanday davolashga muhtoj emasman	99,0	1,0	99,0	1,0
12	Meni oxiri yo'q davolanishlar jonimga tegdi, meni faqatgina o'z holimga qo'yishlarini ho'xlayman	83,0	17,0	90,0	10,0
13	Men boshqa insonlar bilan davolanish haqida gaplashishdan qochaman	83,0	17,0	90,0	10,0
14	Men bezovtalanaman va g'azablanaman qachonki davolanish yaxshi natija bermasa	74,0	26,0	77,0	23,0
15	Hech qaysi bir ta'kidlar menga to'g'ri kelmaydi	100,0	-	100,0	-

“Kelgusidagi davolanish bilan bog'liq qiyinchiliklar va hafv-xatarlar meni qo'rqitadi” tasdiqni QD 1-tur bemorlari 19 foiz, QD 2-tur bemorlar 15 foizi bu tasdiqni tasdiqlashgan.

“Men kasallikdan qutulish uchun eng qiyin va xatarli davolanishga tayyor bo'lar edim” tasdiqni QD 1-tur bemorlari 22 foiz, QD 2-tur bemorlar 15foizi bu tasdiqni tasdiqlashgan.

“Men davolanishda omadga ishonmayman va uni behuda deb hisoblayman” tasdiqni QD 1-tur bemorlari 78 foiz, QD 2-tur bemorlar 87 fozi bu tasdiqni tasdiqlashgan.

“Barcha yangi dorilar, davolash va jarroxlik amaliyotlari, menda ular bilan bog'lik asoratlar va havflar qaqida cheksiz fikrlar paydo qiladi” tasdiqni QD 1-tur bemorlari 19 foiz, QD 2-tur bemorlar 17 fozi bu tasdiqni tasdiqlashgan.

“Men bezovtalanaman va g'azablanaman qachonki davolanish yaxshi natija bermasa” tasdiqni QD 1-tur bemorlari 26 foiz, QD 2-tur bemorlar 23 fozi bu tasdiqni tasdiqlashgan.

#### Xulosa va takliflar.

Shifokor-psixologlar va shifokorlar uchun samarali ishlarni tashkil etish maqsadida bemorni davolash paytida ilg'or psixologik diagnostika va yangi texnologiyalardan foydalanish qoidalariga rioya qilishni hamda nazariy va empirik tadqiqotlar asosida tavsiyalar ishlab chiqishni vazifa qilib qo'yadi.

O'tkazilgan tadqiqotlarning tahlili ko'rsatadiki, davolanishga munosabatning motivatsion-qadriyatli xususiyatlarini aynan qandli diabetda aynan psixologik jihatlari kam o'rganilgan. Jumladan, adabiyotlar manbaalarini tahlil etish ko'rsatadiki, davolanishga sodiqlik va odamning motivatsion-qadriyatlarining o'zaro kompleks ta'sirlarini solishtirma tarzda o'rganish bo'yicha tadqiqotlar kam olib borilgan (kasallikning lokus nazorati, o'z samaradorlik, o'z-o'zini boshqarish va hayot mazmuni qadriyatlarini).

#### ADABIYOTLAR

1. Adherence to long-term therapies, evidence for action. World Health Organisation, 2003. URL: <http://apps.who.int/medicinedocs/pdf/s4883e/s4883e.pdf> (дата обращения: 12.11.2018).
2. Leventhal H., Cameron L. Behavioral theories and the problem of compliance//Patient Education and Counseling. 1987. № 10. P. 117 - 138.
3. Борелл-Каррио Ф., Сачмен Э. Л., Эпстайн Р. М. Биопсихосоциальная модель 25 лет спустя//Отечественные записки. 2006. № 2(29). С. 133-145
4. Емельянов Е.С., Хохлов А.Л., Побединцева М.В. Приверженность лечению в терапии сахарного диабета 2 типа// Медицинская психология в России: электрон. науч. журн. 2013. № 4 (21) [Электронный ресурс]. URL: <http://mpj.ru> (дата обращения: 17.04.2019).
5. Кабанова Т.Н., Булыгина В.Г. Роль субъективных оценок психически больных в формировании приверженности лечению и профилактике повторных ООД [Электронный ресурс] // Психология и право. 2012. № 1. URL: <http://psyjournals.ru/psyandlaw/2012/n1/50332.shtml> (дата обращения: 07.05.2019).
6. Казаковцев Б.А., Кабанова Т.Н. Связь субъективных оценок пациентов, находящихся на принудительном лечении с выраженностью негативной симптоматики и уровнем когнитивного функционирования [Электронный ресурс] // Психология и право. 2014. № 3. С. 32–40. URL: <http://psyjournals.ru/psyandlaw/2014/n3/72713.shtml> (дата обращения: 07.05.2019).
7. Лифинцев Д. В., Анцута А. Н. Социальная реабилитация в контексте биопсихосоциальной модели здоровья// Вестник ПСТГУ IV: Педагогика. Психология. 2013. Вып. 4 (31). С. 50-60..
8. Лиходей Н. В., Калашникова М. Ф., Лиходей Е. М., Фадеев В. В. Анализ факторов, препятствующих формированию приверженности лечению среди больных сахарным диабетом, и стратегий, способствующих ее повышению// Сахарный диабет. 2018. № 21(1). С. 5-14.
9. Любаева Е.В., Ениколопов С.Н. Роль индивидуальных психологических характеристик пациентов в формировании приверженности терапии туберкулеза и ВИЧ // Консультативная психология и психотерапия. 2011. № 2. С. 111–127.
10. Маматова Н.А. Қандли диабетда даволанишга бўлган муносабатни мотивацион-қадриятли хусусиятларини ўрганишнинг тадқиқот методологияси \ «АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФУНДАМЕНТАЛЬНОЙ, КЛИНИЧЕСКОЙ МЕДИЦИНЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ» DOI: 10.26739/conf\_01/05/2020 569-570 б.
11. Мясищев В. Н. Психология отношений: Избранные психологические труды (под ред. Бодалёва А. А). М.: Модэк МПСИ, 2004.
12. Никифоров Г.С. Психология здоровья. СПб, 2006.
13. Хасанова Н.А. Қандли диабетда даволаш самарадорлигининг психологик омилларини баҳолашда Абу Али ибн Сино таълимотининг аҳамияти \ Абу Али ибн Сино ва замонавий фармацевтикада инновациялар III халқаро илмий-амалий анжуман мақолалар тўплами 22 май 2020. 211-213